O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

Matematika yo‘nalishi kunduzgi bo‘lim

08.402 gurux bitiruvchisi *Sayfiddinova Zarnigor Turdaliyevnaning*

«Gipergeometrik funksiyalar»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
fizika - matematika
fanlari doktori,
professor A.Q.O’rinov

Farg‘ona - 2012

Bitiruv malakaviy ishi kafedraning 20____yil ____ _____dagi ____ yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ _____

Taqrizchilar: 1.

2.

R E J A :

KIRISH

I BOB. GIPERGEOMETRIK FUNKSIYA

1-§. Asosiy ta’riflar.

2-§. Asosiy ta’riflardan kelib chiquvchi formulalar.

3-§. Gipergeometrik funksiyaning integral ko‘rinishi.

4-§. Gipergeometrik funksiyani analitik davom ettirishga oid va boshqa ba’zi formulalar.

5-§. Umumlashgan gipergeometrik funksiyalar va qatorlar.

II BOB. IKKI ARGUMENTLI GIPERGEOMETRIK FUNKSIYALAR

1-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning ta’riflari.

2-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning differensial tenglamalari.

3-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarni $F(a,b,c,;x)$ va $J_\nu(x)$ funksiyalar

bo‘yicha yoyilmalari.

4-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning integral ko‘rinishlari.

5-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalar parametrlarning xususiy qiymatlaridagi ko‘rinishi.

6-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning o‘zgaruvchilarning xususiy qiymatlaridagi ko‘rinishi.

7-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning differensiallash formulalari.

8-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning qo‘shni funksiyalar orasidagi munosabatlar.

9-§. Ikki argumentli gipergeometrik funksiyalarning analitik davom ettirish formulalari.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida so’zlagan nutqida kadrlar tayyorlashning ahamiyatiga izoh berib shunday degan edi:

«Biz oldimizga qanday vazifa qo’ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug’ilmasin, gap oxir oqibat, baribir kadrlarga borib qadalaveradi. Mubolag’asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o’rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq qilib aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog’liq.

…Mamlakatimiz kelajagi uchun Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy dasturi»ning amalga oshirilishi juda ham muhim ahamiyatga ega.

…Yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e’tibor berish lozim. Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs - fuqaroni kamol toptirishiga ertaga sinfxonalar va auditoriyalarda kimlar dars va saboq berishiga bog’liq».

Darhaqiqat, barkamol inson shaxsining shakllanishi bevosita uzluksiz ta’lim jarayonida amalga oshadi. Shunday ekan, har jabhada muvaffaqiyatga erishish, jumladan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy dasturni o’rni va ahamiyati beqiyosdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida oliy ta’limning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga qodir, raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun, shuningdek Respublikamiz Prezidenti aytgani kabi «mamlakatimizning boy ilmiy - texnikaviy salohiyatidan keng foydalangan holda, yuksak texnologiya va fan yutuqlariga

asoslangan ishlab chiqarish sohalari - avtomobilsozlik, samolyotsozlik, mikrobiologiya, elektrotexnika va elektronika sanoatlarini telekommunikatsiya va zamonaviy axborot texnologiya vositalarini tez suratlarda rivojlantirish» uchun saboq olayotgan har bir shaxs o'zi o'rgangan ta'lim mazmunini chuqur anglashi, qayerda va qanday tatbiq qilishni bilishi, hayotda esa o'zi amaliyotga tatbiq qila olishi kerak.

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mamlakatda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlaridanoq oldinga surilgan bu maqsadning to‘g‘ri qo‘yilganligi hozirgi kunda ayniqsa, jahon moliyaviy iqtisodiy krizisi u yoki bu darajada mamlakat iqtisodiga ta`sir etishi mumkin bo‘lgan bir sharoitda, o‘z tasdig‘ini yana bir bor topmoqda. Chunki "Milliy dastur"da tayyorlanishi ko‘zda tutilgan mutaxassis zaruriyati tug‘ilgan sharoitda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lishi zarur, yoki aks holda o‘z mutaxassisligini juda tezlikda boshqa mutaxassislikka yo‘naltira olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun esa bugungi kunda tayyorlanayotgan har bir mutaxassis nafaqat belgilangan reja va dastur bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, balki chuqur va atroflicha egallashi, unga yondosh ilm va bilimlar majmuasi va ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Maxsus funksiyalar nazariyasi keng tarmoqli bo‘lib, gipergeometrik funksiyalar uning markazida turadi. Ular bir tomondan ma'lum differensial tenglamaning yechimi sifatida ahamiyatli bo‘lsa, ikkinchi tomondan ma'lum ko‘inishdagi qatorning yig'indisi sifatida ahamiyatlidir.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi dolzarb bo‘lib, u kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Asosiy qism ikki bobdan iborat. Birinchi bobda gipergeometrik funksiyaning ta'rifi va xossalari keltirilib, uning differensiallash, qo‘shish (ayirish) va analitik

davom ettirish formulalari berilgan va isbotlangan.

Ikkinchi bobda esa gipergeometrik funksiyani turli yo‘nalishlarda umumlashtiruvchi maxsus funksiyalar va ularning turli xossalari keltirilgan.

Xulosa qismida mazkur mavzuga oid yakunlovchi fikrlar berilib, mavzuning ahamiyati ochib berilgan.

I BOB. GIPERGEOMETRIK FUNKSIYA

1-§. Asosiy ta’riflar.

Ushbu

$$x(1-x)y'' + \left[c - (a+b+1)x\right]y' - aby = 0 \qquad (1)$$

gipergeometrik tenglama yoki Gauss tenglamasi deb ataluvchi tenglamani tekshiramiz. Bu yerda a,b,c - uchta ixtiyoriy parametrlar bo‘lib, haqiqiy yoki kompleks qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Bulardan ikkitasi: a va b tenglamada simmetrik ishtirok etadi.

$x = 0$ va $x = 1$ bo‘lganda tenglamaning tartibi buzilib, birinchi tartibli tenglama hosil bo‘ladi:

$$cy' - aby = 0$$

$$(c - a - b - 1)y' - aby = 0$$

$x = \infty$ da esa (1) tenglama umuman mahnosini yo‘qotadi. Shuning uchun bu nuqtalar maxsus nuqtalar hisoblanadi.

(1) tenglamaning $x = 0$ maxsus nuqta atrofidagi yechimini

$$y = \sum_{n=0}^{\infty} A_n x^n \qquad (2)$$

darajali qator ko‘rinishida izlaymiz. Bundan birinchi tartibli hosilani olsak

$$y' = \sum_{n=1}^{\infty} nA_n x^{n-1}$$

yoki

$$y' = \sum_{n=0}^{\infty} (n+1)A_{n+1} x^n,$$

ikkinchi tartibli hosilasini olib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$y'' = \sum_{n=1}^{\infty} n(n+1)A_{n+1}x^{n-1} = \sum_{n=0}^{\infty} (n+1)(n+2)A_{n+2}x^n$$

Bu hosilalarning qiymatini va y ni (1) tenglamaga ko'yamiz. U holda

$$\sum_{n=0}^{\infty} x(1-x)(n+1)(n+2)A_{n+2}x^n +$$

$$+\sum_{n=0}^{\infty}\left[c-(a+b+1)x\right](n+1)A_{n+1}x^n - \sum_{n=0}^{\infty} abA_n x^n = 0.$$

Noma'lum $A_1,...,A_n,...$ o'zgarmaslarni topish uchun aniqmas koeffitsientlar usulidan foydalanamiz, bunga asosan x ning bir xil darajalari oldidagi koeffitsientlarni yig'indisini nolga tenglash kerak.Buning uchun yuqoridagi tenglikni quyidagicha yozib olamiz:.

$$\sum_{n=0}^{\infty}\{[(n+1)(n+2)A_{n+2}]x^{n+1} - [(n+1)(n+2)A_{n+2}]x^{n+2} +$$

x^k oldidagi koeffitsientlarni yig'indisini nolga tenglab, quyidagi tenglikni hosil qilamiz

$$\sum_{n=0}^{\infty}\{(x-x^2)(n+1)(n+2)A_{n+2}x^n + [(a+b+1)x(n+1)A_{n+1}x^n -$$

$$- abA_n x^n\} = 0,$$

$$[k(k+1)A_{k+1}]x^k - k(k-1)A_k x^k +$$

$$+ckA_k x^k - k(a+b+1)A_k x^k - abA_k x^k = 0,$$

$$-k(k-1)A_k + k(k+1)A_{k+1} - k(a+b+1)A_k +$$

$$+c(k+1)A_{k+1} - abA_k = 0,$$

Oxirgi tenglikdan

$$(k+(k+1)+c(k+1))A_{k+1} = (k(a+b+1)+k(k-1)+ab)A_k$$

$$(k+1)(k+c)A_{k+1} = (k^2 + ka + kb + ab)A_k =$$

$$= k(k+a) + b(k+a)A_k = (k+a)(b+k)A_k$$

tenglikni hosil qilamiz. Bundan

$$A_{k+1} = \frac{(k+a)(k+b)}{(k+1)(c+k)} A_k$$

rekurrent formulaga ega bo‘lamiz.

Bu yerda $A_0 = 1$ va $c \neq 0, -1, -2, ..., -n, ...$ deb hisoblaymiz. (1) gipergeometrik tenglamaning birinchi xususiy yechimi y_1 ni $F(a,b,c;x)$ orqali belgilab, A_n koeffitsientlarning topilgan qiymatlarini (2) qatorga qo‘yamiz. U holda

$$y_1 = F(a,b,c;x) = 1 + \sum_{n=1}^{\infty} \frac{(a)_n (b)_n}{(c)_n (1)_n} x^n . \qquad (3)$$

Bu yerda

$$a_n = a(a+1)...(a+n-1) = \Gamma(a+n) / \Gamma(a),$$

xususiy holda, $(a)_0 = 1$ va $\forall n \in N$ uchun $(1)_n = n!$.

(3) qator gipergeometrik qator, bu qatorning yig’indisi bo‘lgan $F(a,b,c;x)$ funksiya esa gipergeometrik funksiya deyiladi.

Dalamber printsipiga asosan,

$$\lim_{n\to\infty} \left| \frac{u_{n+1}}{u_n} \right| = \lim_{n\to\infty} \left| \frac{(a+n)(b+n)}{(n+1)(c+n)} x \right| = |x|.$$

Demak, (3) qator $|x| < 1$ da absolut yaqinlashuvchi, $|x| > 1$ da uzoqlashuvchi bo‘ladi. Raabe belgisidan foydalanib ko‘rsatish mumkinki, $x = 1$ bo‘lganda, agar $c - a - b > 0$ bo‘lsa, (3) qator absolut yaqinlashuvchi, agar $c - a - b \leq 0$ bo‘lsa, uzoqlashuvchi; $x = -1$ bo‘lganda esa, agar $c - a - b > 0$ bo‘lsa, absolut yaqinlashuvchi, agar $-1 < c - a - b \leq 0$ bo‘lsa, shartli yaqinlashuvchi, agar $c - a - b \leq -1$ bo‘lsa uzoqlashuvchi bo‘ladi.

Agar (3) formulada $b = c$ bo‘lsa,

$$(a)_n = (-1)^n(-a)(-a-1)...(-a-n+1) = (-1)^n\binom{-a}{n}n!$$

tenglikka asosan

$$F(a,b,c;x) = 1+\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n\binom{-a}{n}x^n = (1-x)^{-a}$$

binomial qator hosil bo‘ladi.

Agarda $a = 1,\ b = c$ bo‘lsa, (3) formula ushbu

$$F(1,b,b;x) = 1+\sum_{n=1}^{\infty}x^n = \frac{1}{1-x}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi, ya’ni $a = 1,\ b = c$ bo‘lgan holda gipergeometrik qator geometrik progressiyaga aylanadi, shuning uchun ham u gipergeometrik qator deb atalgan.

(1) tenglamaning ikkinchi xususiy, umuman aytganda, (3) ga chiziqli bog’liq bo‘lmagan yechimini topish uchun (1) tenglamada

$$y = x^{\rho}\eta$$

almashtirishni bajaramiz.

Bajarilgan almashtirishimizda y dan 1- va 2- tartibli hosilalarni olib, (1) tenglamaga qo‘yamiz

$$y' = r\,x^{r-1}h + x^r h',$$

$$y'' = r(r-1)x^{r-2}h + r\,x^{r-1}h' + r\,x^{r-1}h' + x^r h'' =$$

$$= r(r-1)x^{r-2}h + 2r\,x^{r-1}h' + x^r h''$$

$$x(1-x)\left[r(r-1)x^{r-2}h + 2r\,x^{r-1}h' + x^r h''\right] +$$

$$+\left[c-(a+b+1)x\right]\left(r\,x^{r-1}h + x^r h'\right) - abx^r h = 0,$$

$$r(r-1)x^{r-1}h + 2rx^{r}h' + x^{r+1}h'' -$$

$$- r(r-1)x^{r}h - 2rx^{r+1}h' - x^{r-2}h'' +$$

$$+ crx^{r-2}h + cx^{r}h' - (a+b+1)rx^{r}h -$$

$$- (a+b+1)x^{r+1}h' - abx^{r}h = 0.$$

U holda (1) quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$x(1-x)\eta'' + \left[(c+2\rho) - (a+b+1+2\rho)x\right]\eta' -$$

$$-\left[ab + \rho(a+b+\rho) - \frac{\rho(\rho+c-1)}{x}\right]\eta = 0.$$

Bu tenglama (1) tenglama tipiga tegishli bo‘lishi uchun $\rho = 1-c$ (yoki $\rho = 0,$ bu hol bizni qiziqtirmaydi) bo‘lishi kerak. U holda

$$x(1-x)\eta'' + \left\{(2-c) - \left[(a-c+1)+(b-c+1)+1\right]x\right\}\eta' -$$

$$-(a-c+1)(b-c+1)\eta = 0$$

tenglamaga ega bo‘lamiz. Shunday qilib, $\rho = 1-c$ bo‘lganda $y = x^{\rho}\eta$ almashtirish (1) tenglamani xuddi shu ko‘rinishdagi tenglamaga o‘tkazadi, bunda faqat a, b, c larni mos ravishda $a-c+1,$ $b-c+1,$ $2-c$ larga almashtirish zarur. Demak, berilgan (1) tenglama y_1 ga chiziqli bog’liq bo‘lmagan

$$y_2 = x^{1-c}F(a-c+1, b-c+1, 2-c; x)$$

yechimga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, y_2 funksiya

$$2-c \neq 0, -1, -2, ..., -n, ...$$

bo‘lgandagina ma’noga ega bo‘ladi. Shunday qilib, (1) tenglamaning umumiy yechimini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$y = c_1F(a,b,c;x) + c_2x^{1-c}F(a-c+1, b-c+1, 2-c; x),$$

bu yerda c_1 va c_2 - ixtiyoriy o‘zgarmaslar.

Agar gipergeometrik funksiyaga simmetrik bo‘lib kirgan a va b parametrlardan bittasi manfiy butun son $(-n)$ ga teng bo‘lsa, (3) gipergeometrik qator uzilib qoladi va u n - darajali ko‘phadga aylanadi.

Agarda $a=-n_1,\quad b=-n_2$ bo‘lib, bunda $n_1,\quad n_2\in N$ bo‘lsa, u holda gipergeometrik qator ko‘phadga aylanib, uning darajasi n_1 va n_2 sonlarning kichigiga teng bo‘ladi.

(1) tenglamaning $x=1$ maxsus nuqta atrofidagi yechimlarini topish uchun $t=1-x$ almashtirish qilamiz. Natijada (1) tenglamadan yana o‘ziga o‘xshash tenglama hosil bo‘lib, yangi tenglama $a_1=a,\ b_1=b,\ c_1=a+b-c+1$ parametrlarga ega bo‘ladi. Buni e’tiborga olib, (1) tenglamaning $x=1$ maxsus nuqta atrofidagi chiziqli bog’liq bo‘lmagan yechimlarini yozish mumkin:

$$y_3=F\left(a,b,a+b-c+1;1-x\right),$$

$$y_4=\left(1-x\right)^{c-a-b}F\left(c-a,c-b,c+1-a-b;1-x\right),$$

bu yerda $c-a-b\notin Z$ va $\left|1-x\right|<1$.

Agar (1) tenglamada $t=x^{-1},\ \omega=t^{-a}y$ almashtirish bajarsak, $\omega\left(t\right)$ funksiyaga nisbatan, parametrlari $a_1=a,\ b_1=1+a-c,\ c_1=1+a-b,$ bo‘lgan tenglamaga ega bo‘lamiz. Bunda (1) tenglamaning $x=\infty$ maxsus nuqtasi yangi tenglamaning $t=0$ maxsus nuqtasiga almashadi. Bularni e’tiborga olib, (1) tenglamaning $x=\infty$ maxsus nuqtasi atrofidagi chiziqli bog’liq bo‘lmagan ikki yechimlarini topamiz:

$$y_5=x^{-a}F\left(a,1+a-c,1+a-b;1/x\right),$$

$$y_6=x^{-b}F\left(b,1+b-c,1+b-a;1/x\right),$$

bu yerda $a-b\notin Z$ va $\left|x\right|>1.$

Shunday qilib, (1) tenglamning parametrlari $c,\ c-a-b,\ a-b\notin Z$ shartlarni qanoatlantirganda uning oltita asosiy yechimlari gipergeometrik funksiya orqali yozilishini topdik.

2-§. Asosiy ta’riflardan kelib chiquvchi formulalar.

(3) qatorni hadlab differensiallash natijasida darhol ushbu

$$\frac{d}{dx}F(a,b,c;x)=\frac{ab}{c}F(a+1,b+1,c+1;x)$$

formulani hosil qilamiz.

Isbot: Gipergeometrik funksiyaning qator ko‘rinishini yozib olamiz:

$$F(a,b,c;x)=1+\frac{a\cdot b}{c\cdot 1!}x+\frac{a(a+1)b(b+1)}{c(c+1)2!}x^2+$$

$$+\ldots+\frac{a(a+1)\ldots(a+n-1)a(b+1)\ldots(a+n-1)}{c(c+1)\ldots(c+n-1)(n-1)!}x^{n-1}=$$

$$=1+\frac{ab}{c}x+\frac{(a+1)(b+1)}{(c+1)2!}x^2+$$

$$+\ldots+\frac{(a+1)\ldots(a+n-1)(b+1)\ldots(a+n-1)}{(c+1)\ldots(c+n-1)(n-1)!}x^{n-1}$$

Bu qatorni hadlab differensiallaymiz

$$\frac{d}{dx}F(a,b,c;x)=\frac{ab}{c}\left[1+\frac{(a+1)(b+1)}{(c+1)}x+\right.$$

$$\left.+\ldots+\frac{(a+1)\ldots(a+n-1)(b+1)\ldots(a+n-1)}{(c+1)\ldots(c+n-1)(n-2)!}x^{n-2}\right]\ldots$$

Bu esa

$$\frac{d}{dx}F(a,b,c;x)=\frac{ab}{c}F(a+1,b+1,c+1;x)$$

Formula isbotlandi.

(3) qatorni avval x^a ga ko‘paytirib, so‘ngra hadlab differensiallasak, quyidagi formulalar kelib chiqadi:

$$\frac{d}{dx}\left[x^aF(a,b,c;x)\right]=ax^{a-1}F(a+1,b,c;x),$$

Yuqoridagi gipergeometrik funksiyaning qator ko‘rinishiga x^a ko‘paytirib, hadlab differensiallaymiz

$$\frac{d}{dx}\left[x^aF(a,b,c;x)\right]=ax^{a-1}+\frac{ab}{c}(a+1)x^a+\frac{a(a+1)(a+2)b(b+1)}{c(c+1)}x^{a+1}+$$

$$+\ldots+\frac{a(a+1)\ldots(a+n-1)b(b+1)\ldots(b+n-1)}{c(c+1)\ldots(c+n-1)(n-1)!}(a+n)x^{a+n}$$

Olingan hosiladan umumiy ko‘paytuvchi ax^{a-1} ni chiqarib, qolgan qismini gipergeometrik funksiya ko‘rinishda yozamiz:

$$\frac{d}{dx}\left[x^aF(a,b,c;x)\right]=ax^{a-1}\left[1+\frac{(a+1)b}{c}x+\frac{(a+1)(a+2)b(b+1)}{c(c+1)}x^2+\right.$$

$$+\ldots+\frac{(a+1)\ldots(a+n-1)b(b+1)\ldots(b+n-1)}{c(c+1)\ldots(c+n-1)(n-1)!}(a+n)x^n\ldots$$

Bundan

$$\frac{d}{dx}\left[x^a F(a,b,c;x)\right]=ax^{a-1}F(a+1,b,c;x)$$

tenglik kelib chiqadi.

Yuqoridagi isbotga ko‘ra quyidagi 2 ta differensiallash formulasini ham isbotlash mumkin.

$$\frac{d}{dx}\left[x^b F(a,b,c;x)\right]=bx^{b-1}F(a,b+1,c;x),$$

$$\frac{d}{dx}\left[x^{c-1}F(a,b,c;x)\right]=(c-1)x^{c-2}F(a,b,c-1;x)$$

Xuddi shu kabi quyidagi tengliklar ham o‘rinli:

1. $\dfrac{d^n}{dx^n}F(a,b,c;x)=\dfrac{(a)_n(b)_n}{(c)_n}F(a+n,b+n,c+n;x),$

2. $\dfrac{d^n}{dx^n}[x^{a+n-1}F(a,b,c;x)]=(a)_n x^{a-1}F(a+n,b,c;x),$

3. $\dfrac{d^n}{dx^n}[x^{c-1}F(a,b,c;x)]=(c-n)_n x^{c-n-1}F(a,b,c-n;x),$

4. $\dfrac{d^n}{dx^n}[(1-x)^{a+n-1}F(a,b,c;x)]=$

$$=(-1)^n\frac{(a)_n(c-b)_n}{(c)_n}(1-x)^{a-1}F(a+n,b,c+n;x),$$

5. $\frac{d^n}{dx^n}[(1-x)^{a+b-c}F(a,b,c;x)] =$

$= \frac{(c-a)_n(c-b)_n}{(c)_n}(1-x)^{a+b-c-n}F(a,b,c+n;x),$

6. $\frac{d^n}{dx^n}[x^{c-1}(1-x)^{b-c+n}F(a,b,c;x)] =$

$= (c-n)_n x^{c-n-1}(1-x)^{b-c}F(a-n,b;c-n;x),$

7. $\frac{d^n}{dx^n}[x^{c-1}(1-x)^{a+b-c}F(a,b,c;x)] =$

$= (c-n)_n x^{c-n-1}(1-x)^{a+b-c-n}F(a-n,b-n,c-n;x)$

8. $\frac{d^n}{dx^n}[x^{c-a+n-1}(1-x)^{a+b-c}F(a,b,c;x)] =$

$= (c-a)_n x^{c-a-1}(1-x)^{a+b-c-n}F(a-n,b,c;x).$

Bu tengliklar to‘g’riligiga, masalan, matematik induksiya usuli bilan ishonch hosil qilish mumkin.

Bu tengliklarni birinchisini o‘rinli ekanligini ko‘rsatib o‘tamiz. Yuqorida gipergeometrik funksiyani bir marta differensiallab

$$\frac{d}{dx}F(a,b,c;x) = \frac{ab}{c}F(a+1,b+1,c+1;x)$$

tenglikni hosil qilgan edik. Bundan foydalanib $\frac{d^2}{dx^2}F(a,b,c;x)$ ni topishimiz mumkin.

$$\frac{d^2}{dx^2}F(a,b,c;x)=\frac{a(a+1)b(b+1)}{c(c+1)}F(a+2,b+2,c+2;x).$$

Bu jarayonni n marta qo‘llasak,

$$\frac{d^n}{dx^n}F(a,b,c;x)=\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n}F(a+n,b+n,c+n;x)$$

kelib chiqadi.

Odatda ushbu oltita $F(a\pm1,b,c;x)$, $F(a,b\pm1,c;x)$, $F(a,b,c\pm1;x)$ funksiyalar $F(a,b,c;x)$ *funksiyaga qo‘shni funksiyalar deyiladi.* $F(a,b,c;x)$ va ixtiyoriy unga ana shunday qo‘shni ikki funksiyalar orasida koeffitsientlari x ga bog’liq chiziqli funksiya bo‘lgan chiziqli kombinatsiya mavjud. Bunday kombinatsiyalar 15 ta bo‘lib, ularni Gauss topgan. Quyida biz ularning to‘la ro‘yxatini isboti bilan keltiramiz. Bunda F, $F(a\pm1)$, $F(b\pm1)$, $F(c\pm1)$ orqali mos ravishda $F(a,b,c;x)$, $F(a\pm1,b,c;x)$, $F(a,b\pm1,c;x)$, $F(a,b,c\pm1;x)$ funksiyalar tushuniladi. *F, F(a+1),F(a-1)* larning qator ko’rinishidan foydalanib, x^n ishtirok etgan hadlarni yig’amiz:

1. $$\left[c-2a-(b-a)x\right]F+a(1-x)F(a+1)-(c-a)F(a-1)=0,$$

Isbot:

$$(c-2a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}a\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-$$

$$-a\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}-(c-a)\frac{(a-1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n=0$$

Buning hadlarini soddalashtiramiz

$$(c-2a)\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)\Gamma(c+n)n!}x^n-(b-a)\frac{\Gamma(a+n-1)\Gamma(b+n-1)\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)\Gamma(c+n-1)(n-1)!}x^n+$$

$$+a\frac{\Gamma(a+n+1)\Gamma(b+n)\Gamma(c)}{\Gamma(a+1)\Gamma(b)\Gamma(c+n)n!}x^n-$$

$$-a\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n-1)\Gamma(c)}{\Gamma(a+1)\Gamma(b)\Gamma(c+n-1)(n-1)!}x^n=$$

$$=(c-a)\frac{\Gamma(a+n-1)\Gamma(b+n)\Gamma(c)}{\Gamma(a-1)\Gamma(b)\Gamma(c+n)n!}x^n$$

Hosil bo‘lgan tenglamada Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$c-a-(b-a)\frac{c+n-1}{(a+n-1)(b+n-1)}n+n-\frac{c+n-1}{b+n-1}n=(c-a)\frac{a-1}{a+n-1}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$[n(b+n-1)(c+n-1)-n(c+n-1)(b+n-1)]x^n=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

2. $$(b-a)F+aF(a+1)-bF(b+1)=0,$$

Isbot:

$$(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}+a\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}=$$

$$=(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}+a(a+n)\frac{(a)_n(b)_n}{a(c)_n n!}=$$

$$=\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}(b-a+a+n)=\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}(b+n)=b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}$$

3. $$(c-a-b)F+a(1-x)F(a+1)-(c-b)F(b-1)=0,$$

Isbot: Bu tenglikning qator ko'rinishidan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$(c-a-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n+a(1-x)\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n=(c-b)\frac{(a)_n(b-1)_n}{(c)_n n!}x^n.$$

Hosil bo'lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o'tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo'lib,

$$c-b+n-n\frac{c+n-1}{b+n-1}=\frac{(c-b)(b-1)}{b+n-1}$$

tenglikni hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$cb+cn-c-b^2-bn+b+bn+n^2-n-cn-n^2+n-cb+c+b^2-b=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

4. $$c\left[a-(c-b)x\right]F-ac(1-x)F(a+1)+(c-a)(c-b)xF(c+1)=0,$$

Isbot: Bu yerda quyidagiga egamiz:

$$ac\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n - c(c-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1} + (c-a)(c-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c+1)_n n!}x^{n+1} =$$

$$= ac\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n - ac\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}.$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni xar ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$ac - c(c-b)\frac{n(c+n-1)}{(a+n-1)(b+n-1)} + (c-a)(c-b)\frac{cn}{(a+n-1)(b+n-1)} =$$

$$= c(a+n) - c\frac{n(c+n-1)}{b+n-1}$$

ni hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(a+n+1)(c-b) - (c-b)(a+n-1) = 0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

5. $$(c-a-1)F + aF(a+1) - (c-1)F(c-1) = 0, \qquad (4)$$

Isbot:

$$(c-a-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!} + a\cdot\frac{(a+1)_n(b)_n}{(c)_n n!} =$$

$$= (c-a-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!} + a\cdot(a+n)\cdot\frac{(a)_n(b)_n}{a\cdot(c)_n n!} =$$

$$= \frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}\left[c-a-1+(a+n)\right] = \frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}\left[(c-1)+n\right] = \frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}.$$

Formula isbotlandi.

6. $$(c-a-b)F-(c-a)F(a-1)+b(1-x)F(b+1)=0,$$

Isbot:

$$(c-a-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n+b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^n-b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}=$$

$$=(c-a)\frac{(a-1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n.$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni xar ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$(c-a-b)+(b+n)-\frac{(c+n-1)n}{a+n-1}=(c-a)\frac{a-1}{a+n-1}$$

ni hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(c-a+n)(a+n-1)-(c-a)(a-1)-n(c+n-1)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

7. $$(b-a)(1-x)F-(c-a)F(a-1)+(c-b)F(b-1)=0,$$

Isbot:

$$(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+(c-b)\frac{(a)_n(b-1)_n}{(c)_n n!}x^n=$$

$$=(c-a)\frac{(a-1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n.$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$(b-a)-(b-a)\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+(c-b)\frac{b-1}{b+n-1}=$$

$$=(c-a)\frac{a-1}{a+n-1}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(a+n-1)\{(b-a)(b+n-1)+(c-b)(b-1)\}-n(b-a)(c+n-1)-$$

$$-(ca-c-a^2+a)(b+n-1)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

8. $$c(1-x)F-cF(a-1)+(c-b)xF(c+1)=0,$$

Isbot: x^n ishtirok etgan hadlarni yig’sak, quyidagiga ega bo’lamiz:

$$c\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-c\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+(c-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c+1)_n n!}x^{n+1}=c\frac{(a-1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n.$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalarida foydalanib, tenglikni xar ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$c-c\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+(c-b)\frac{cn}{(a+n-1)(b+n-1)}=c\frac{a-1}{a+n-1}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$nc(b+n-1)-cn(b+n-1)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

9. $\left[a-1-(c-b-1)x\right]F+(c-a)F(a-1)-(c-1)(1-x)F(c-1)=0,$

Isbot:

$$(a-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-(c-b-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+(c-a)\frac{(a-1)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n=$$

$$=(c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^n-(c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^{n+1}.$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$(a-1)-(c-b-1)\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+(c-a)\frac{a-1}{a+n-1}=$$

$$=(c-1)\frac{c+n-1}{c-1}-(c-1)\frac{(c+n-1)(c+n-2)}{(a+n-1)(b+n-1)(c-1)}n$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$n(b+n-1)(c+n-1-n+1-c)=0$ ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

10. $\left[c-2b+(b-a)x\right]F+b(1-x)F(b+1)-(c-b)F(b-1)=0,$

Isbot:

$$(c-2b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n+(b-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^n-$$

$$-b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}=(c-b)\frac{(a)_n(b-1)_n}{(c)_n n!}x^n$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$(c-2b)+(b-a)\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+b\frac{b+n}{b}-b\frac{(c+n-1)n}{b(a+n-1)}=$$

$$=(c-b)\frac{b-1}{b+n-1}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$n(c+n-1)[a+n-1+1-a-n]=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

11. $c\left[b-(c-a)x\right]F-bc(1-x)F(b+1)+(c-a)(c-b)xF(c+1)=0,$

Isbot:

$$cb\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n+bc\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+(c-a)(c-b)\frac{(a)_n(b)_n}{(c+1)_n n!}x^{n+1}=$$

$$=c(c-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+bc\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}x^n$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini

$\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$cb+bc\frac{(c+n-1)n}{b(a+n-1)}+(c-a)(c-b)\frac{cn}{(a+n-1)(b+n-1)}=$$

$$=c(c-a)\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+bc\frac{b+n}{b}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(c-a)(b+n-1-b-n+1)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

12. $(c-b-1)F+bF(b+1)-(c-1)F(c-1)=0,$

Isbot:

$$(c-b-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}+b\frac{(a)_n(b+1)_n}{(c)_n n!}=$$

$$=(c-b-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}+b(b+n)\frac{(a)_n(b)_n}{b(c)_n n!}=$$

$$=\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}(c-b-1+b+n)=\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}(c-1)+n\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}$$

13. $c(1-x)F-cF(b-1)+(c-a)xF(c+1)=0,$

Isbot:

$$c\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n - c\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1} + (c-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c+1)_n n!}x^{n+1} = c\frac{(a)_n(b-1)_n}{(c)_n n!}x^n$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$c - c\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)} + (c-a)\frac{cn}{(a+n-1)(b+n-1)} = c\frac{b-1}{b+n-1}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$n(a+n-1)+n(1-a-n)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

14. $\left[b-1-(c-a-1)x\right]F+(c-b)F(b-1)-(c-1)(1-x)F(c-1)=0.$

Isbot: Bu yerda quyidagiga egamiz:

$$(b-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n - (c-a-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1} +$$

$$+(c-b)\frac{(a)_n(b-1)_n}{(c)_n n!}x^n = (c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^n - (c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^{n+1}$$

Hosil bo‘lgan tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalaridan foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$b-1-(c-a-1)\frac{(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)}+(c-b)\frac{b-1}{b+n-1}=$$

$$=(c-1)\frac{c+n-1}{c-1}-(c-1)\frac{n(c+n-2)(c+n-1)}{(a+n-1)(b+n-1)(c-1)}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(a+n-1)(b-c-n)(b+n-1)+(c-b)(b-1)+n(c+n-1)=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

15. $c[c-1-(2c-a-b-1)x]F+(c-a)(c-b)xF(c+1)-c(c-1)(1-x)F(c-1)=0$

Isbot:

$$c(c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^n-c(2c-a-b-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c)_n n!}x^{n+1}+$$

$$+(c-b)(c-a)\frac{(a)_n(b)_n}{(c+1)_n n!}x^{n+1}=c(c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^n-c(c-1)\frac{(a)_n(b)_n}{(c-1)_n n!}x^{n+1}$$

tenglamada poxgammer ifodadan Gamma funksiyaga o‘tib, hamda Gamma funksiyaning xossalarida foydalanib, tenglikni har ikki tomonini $\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(c+n)n!}$ ifodaga bo‘lib,

$$c(c-1)-\frac{cn(2c-a-b-1)(c+n-1)}{(a+n-1)(b+n-1)}+\frac{cn(c-a)(c-b)}{(a+n-1)(b+n-1)}=$$

$$=c(c-1)\frac{c+n-1}{c-1}-c(c-1)\frac{(c+n-2)(c+n-1)n}{(a+n-1)(b+n-1)(c-1)}$$

hosil qilamiz. Ifodani soddalashtirish natijasida

$$(c-a)(c-b)-(a+n-1)(b+n-1)+$$

$$+(c+n-1)[c+n-2-2c+a+b+1]=0$$

ekanligi kelib chiqadi. Formula isbotlandi.

Ikkita parametri o‘zgarmas bo‘lgan qo‘shni gipergeometrik funksiyalar orasida esa quyidagi bog’lanishlar mavjud:

$$(c-a)F(a-1)+(2a-c-ax+bx)F+a(1-x)F(a+1)=0,$$

$$(c-b)F(b-1)+(2b-c-bx+ax)F+b(x-1)F(b+1)=0,$$

$$c(c-1)(x-1)F(c-1)+c[c-1-(2c-a-b-1)x]F+$$

$$+(c-a)(c-b)xF(c+1)=0.$$

Bu tengliklarning to‘g’riligiga ishtirok etayotgan gipergeometrik funksiyalarning qatorga yoyilmasidan foydalanib, o‘zgaruvchi x ning mos darajalari koeffitsientlarini taqqoslash usuli bilan ishonch hosil qilish mumkin.

3-§. Gipergeometrik funksiyaning integral ko‘rinishi.

(3) qatorni

$$(a)_n=\frac{\Gamma(a+n)}{\Gamma(a)}$$

tenglikni e’tiborga olib, ushbu

$$F(a,b,c;x)=1+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\Gamma(c)\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(a)\Gamma(b)\Gamma(c+n)n!}x^n=$$

$$=\frac{\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)}\left[\frac{\Gamma(a)\Gamma(b)}{\Gamma(c)}+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(c+n)n!}x^n\right]=$$

$$= \frac{\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)} \sum_{n=0}^{\infty} \frac{\Gamma(a+n)\Gamma(b+n)}{\Gamma(c+n)n!} x^n$$

ko‘rinishda yozib olamiz.

Bundan formulaga asosan

$$B\left(b+n, c-b\right) = \frac{\Gamma(b+n)\Gamma(c-b)}{\Gamma(c+n)}$$

bo‘lganligi sababli, avvalgi tenglik

$$F\left(a,b,c;x\right) = \frac{\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)\Gamma(c-b)} \sum_{n=0}^{\infty} \frac{\Gamma(a+n)}{n!} x^n B\left(b+n, c-b\right)$$

ko‘rinishda yoziladi yoki

$$F\left(a,b,c;x\right) = \frac{\Gamma(c)}{\Gamma(a)\Gamma(b)\Gamma(c-b)} \sum_{n=0}^{\infty} \frac{\Gamma(a+n)}{n!} x^n \int_0^1 t^{n+b-1}\left(1-t\right)^{c-b-1} dt.$$

Bu yerdagi integral n ning barcha qiymatlarida yaqinlashuvchi bo‘lgani uchun

$$b > 0, \quad c-b > 0 \text{ yoki } c > b > 0 \tag{5}$$

shartlarning bajarilishi zarurdir.

Avvalgi tenglikni ushbu

$$F\left(a,b,c;x\right) = \frac{\Gamma(c)}{\Gamma(b)\Gamma(c-b)} \sum_{n=0}^{\infty} \frac{\Gamma(a+n)}{n!\Gamma(a)} \int_0^1 t^{n+b-1}\left(1-t\right)^{c-b-1} x^n dt =$$

$$= \frac{\Gamma(c)}{\Gamma(b)\Gamma(c-b)} \int_0^1 t^{b-1}\left(1-t\right)^{c-b-1} \left[\sum_{n=0}^{\infty} \frac{(a)_n}{n!} \left(xt\right)^n \right] dt$$

ko‘rinishda yozib olamiz. Integral ostidagi yig’indi $\left(1-xt\right)^{-a}$ funksiyaning cheksiz qatorga yoylmasidan iborat bo‘lgani uchun

